

**GENDER YONDASHUV ASOSIDA SHARQONA TARBIYANI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI.**

Xolmatova Zulfiya Tillavoldiyevna

FarDU, Sirtqi bo'lim, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsent, p.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasiga biriktirilgan gender tengligi bo'yicha xalqaro hujjatlar normalarining amalda bajarilishini monitoring qilish va ularda belgilangan tavsiyalarning bajarilishini nazorat qilish, genderli yondashuv asosida qurilgan hozirgi zamon mакtabidagi ta'lim jarayonining tahlilidan iboratdir.

Kalit so'zlar. Gender, tushuncha, ta'lim, o'qitish, tarbiya, mакtab va OTM, strategiya, erkak va ayol.

**THE SOCIO-PEDAGOGICAL NEED FOR THE FORMATION OF
ORIENTAL EDUCATION ON THE BASIS OF A GENDER APPROACH.**

Annotasia: Monitoring the implementation of the norms of international documents on gender equality assigned to the Republic of Uzbekistan and monitoring the implementation of the recommendations set out therein consists of an analysis of the educational process in a modern school based on a gender approach.

Keywords: Gender, awareness, education, training, upbringing, school and university, strategy, men and women, training, upbringing, school and university, strategy, woman and man.

Jahonda innovatsion yondashuvlardan foydalanish asosida ta'lim tizimini modernizatsiyalash vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Bu borada Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o'tkazilgan Butunjahon forumida qabul qilingan 2030-yilga qadar rivojlanish deklaratsiyasida "...o'quvchilarda o'zlarining gender rollarini farqlash va gender rollarni o'zlashtirish ko'nikmasini jadal rivojlantirish, madaniy immunitetni tarkib toptirish"¹ qayd etilgan bo'lib ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga, gender tenglikni ta'minlashga va qarama-qarshi jins vakillariga ta'lim olishda teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan genderli yondashuv bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu esa ta'limda gender yondashuvdan foydalanish tizimini takomillashtirish, gender yondashuv imkoniyatlaridan o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilishda foydalanish zaruratini oshirmoqda.

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ularni tarbiyalash metodikasini

¹ https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000233137_rus

zamonaviylashtirish bilan birga, o‘quvchi shaxsi qadr-qimmatini hamda jinsidan qat’iy nazar ularning tengligini ta’minlash, turli separatistik qarashlarni va ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etish, gender pedagogikasi asosida sharqona qadriyatlar va g‘arbona madaniy xususiyatlar asosida tarbiyalash tizimini yaratishga doir ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda gender tenglikni ta’minlashning yangona formulasi mavjud emasligi, uni amalga oshirishda har bir jamiyat o‘zining madaniy qadriyatlari va mental xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashuvi lozimligi xulosa qilinmoqda. Bu esa zamonaviy pedagogikada genderli yondashuv imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, uni turlicha madaniy qadriyatlar mavjud jamiyatlarga mos ravishda qo‘llash vazifalarini yuzaga chiqarmoqda.

O‘zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida “...gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash”²ga qaratilgan ko‘plab vazifalar belgilab olinmoqda, bir qancha tashkiliy-huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilmoqda va bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, davlat siyosati darajasida “O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi” tashkil etilganligini alohida ta’kidlash lozim. Bunday gender islohotlar negizida ta’lim tizimida ham gender yondashuv asosida ishslash, o‘quvchilarga bo‘ladigan har qanday muammolarni bartaraf etish, jinsiy tafovutlar asosida kamsitilishga qarshi kurashishda gender yondashuvga asoslangan ta’limni tashkil etish va innovatsion ta’lim metodikasini ishlab chiqish pedagogik dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561сон, 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-4235-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/5841063>

maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda genderli yondashuvning nazariy-metodologik asoslari ko‘plab G‘arb, MDH va mamlakatimiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham mazkur jarayon tizimli amalga oshirilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda gender tengligini ta’minlashning ijtimoiy-siyosiy omillari, gender stereotiplarni bartaraf etishning falsafiy jihatlari, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlariga qarshi kurashish masalalarini T.Narbaeva, X.Tojiboyeva, G.Qurbanova, Z.Boboyeva, R.Samarov, M.G'afforova, O.Musurmonova, M.To‘xtaxo‘jayeva, M.G‘anieva, M.Nurmatova, E.Sultonova, G.Matkarmanova, Sh.Sodiqova, N.Nishonova, M.G‘afforova, G.Ganieva, X.Nasrullaeva, N.Jo‘raeva, S.Safayeva, N.Annayeva, G.Axmedova, A.X.Saidov, S.Rashidova, E.Sultonova, D.Alimova, F.Otaxo‘jayev kabi olimlarning tadqiqot ishlarida ko‘rish mumkin.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sstligi (MDH) mamlakatlarida gender tenglikni ta’minlashda xotin-qizlarning huquq va erkinliklari kafolatiga erishish, maqomini yuksaltirish, ularning ijtimoiy himoyasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni Y.Bezelyanskiy, A.Veselovskiy, V.A.Geodakyan, Y.P.Ilin, Y.I.Kalinina, S.P.Korolenko, N.Xamitov, L.I.Shinelova, S.V.Polenina, B.Tugelbayeva, A.Tabishalieva, A.Karasayeva, T.A.Mashika, T.N.Sidorova, Y.A.Ballayeva kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ko‘rish mumkin.

Xorij mamlakatlarida xotin-qizlarning gender tengligini ta’minlash, ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish, ularning huquq va erkinliklari masalalarini keng ko‘lamda o‘rganilgan. Jumladan, ushbu masalani konstruktiv asoslarda tadqiq etish nuqtayi nazaridan o‘rgangan olimlar qatoriga R.Konnella, P.Burde, J.Skott, V.Spayk Peterson, O.Voroninalarni kiritish mumkin. Xotin-qizlar masalasi, ularni ijtimoiy himoya qilish haqidagi hozirgi zamon o‘zgarishlari haqida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan N.Najib, E.Xelen, A.Kitchen, M.Kovalskiy, D.Ruts, L.Xusniy kabi jahoning yetakchi olimlari tomonidan xalqaro gumanitar tamoyillar doirasida xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ularning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar, migratsiyadagi ayollarga nisbatan ishlatiladigan maishiy zo‘ravonlik holatlari va ularning huquqiy yechimlari, zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan ayollarning ruhiy va psixologik tushkunlikdan chiqarishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning tadqiqotlaridagi ilmiy xulosalar muhim ahamiyatga ega bo'lsada, pedagogik olimlar tomonidan ta'lif jarayonida genderli yondashuvni takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish maxsus dissertatsiya tadqiqtasi obyekti sifatida o'rganilmagan va aynan o'quvchilarda sharqona tarbiyani shakllantirishda genderli yondashuvning nazariy-metodologik asoslari maxsus tadqiqtasi obyekti sifatida tadqiq etilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Холматова, З. Т. (2020). ТА'ЛИМ ЖАРАЁНИДА ГЕНДЕРЛИ ЁНДАШУВ МОДЕЛИНИНГ ХАРАКТЕРИСТИКАСИ. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 7(3).
2. Kholmatova, Z. T. (2019). GENDER EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(9), 199-207.
3. Xolmatova, Z. T. Teoreticheskie osnovi gendernogo podxoda v pedagogike. *Nauchnyi jurnal «Gumanitarniy traktat» www. gumtraktat. ru ISSN*, 2500-115915.
4. Холматова, З. Т. (2017). ОПРЕДЕЛИТЬ ОДАРЁННЫХ ДЕТЕЙ И РАЗВИВАТЬ У НИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ. *Ученый XXI века*, 58.
5. Холикова, Д. М., & Холматова, З. Т. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Школа будущего*, (4), 236-245.
6. Холматова, З. Т. (2019). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В ПЕДАГОГИКЕ. *Гуманитарный трактат*, (61), 77-80.
7. Холматова, З. (2021). Ўзбекистонда гендер тарбия–оила мустаҳкамлиги меъзони. *Общество и инновации*, 2(9/S), 253-265.
8. Холматова, З. (2017). Особенности субъект-субъектных отношений в процессе дискуссии, основанной на диалоге. *Педагогическое образование и наука*, (2), 104-106.
9. Холматова, З. (2016). Основные аспекты развития личностных структур сознания в школьном возрасте. *Вестник современной науки*, (1-2), 132-134.
- 10.Холматова, З. Т. (2013). Гендерный подход к проблемам обучения и воспитания. In *Аспекты в реализации научных исследований* (pp. 31-36).
- 11.Холматова, З. (2021). Гендерное образование в Узбекистане–критерии силы семьи. *Общество и инновации*, 2(9/S), 253-265.
- 12.Kholikova, D. (2020). INTELLECTUAL ACTIVITY OF CREATIVE THINKING VERBAL TEST “UNUSUAL USE”. *PEDAGOGICAL SCIENCES*, 22.
- 13.Kholikova, D. M. (2021). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN.
- 14.Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. *Scientific progress*, 3(4), 174-180.
- 15.Шарипова Д., Холикова Д. Основные направления работы по технологиям оздоровления в начальной школе. “Халк та'лими” ильмий-журнал

- "Методика". 2017. № 6.
- 16.SHaripova, D., & Xolikova, D. Osnovnie napravleniya raboti po texnologii zdorovesberejeniya v nachalnoy shkole.“Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnalı. 2017. № 6.
- 17.Maksutovna, K. D. (2022). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 55-59.
- 18.Maksutovna, K. D. (2022). Development of innovative thinking skills among students of higher educational institutions. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 55-59.
- 19.Khalikova, D. M. (2016). QUESTION OF EDUCATION IN IMPROVING THE PERSONALITY. Ученый XXI века, (3-1), 34-37.
- 20.Холикова, Д. М. (2016). QUESTION OF EDUCATION IN IMPROVING THE PERSONALITY. Ученый XXI века, (3-1 (16)), 34-37.